

**O'ZBEK HIKOYACHILIGIDA BADIY KONFLIKT SHAKLLARI
(ISAJON SULTON, ULUG'BEK HAMDAM HIKOYALARI ASOSIDA)**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14511382>

Sadullayeva Muxlisa Xamrayevna

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya.

Ushbu maqolada badiiy asar personajlarining ichki va tashqi olamini tadqiq qiluvchi konflikt (ziddiyat) tushunchasining izohi berilgan. Konflikt turlari haqida ma'lumot berilgan. Zamonaviy hikoyalarda konfliktning ifodalanishi misollar bilan keltirilgan. Isajon Sultonning "Qismat", Ulug'bek Hamdamning "Tosh" hikoyalari tahlil obyekti qilib olingan.

Konflikt (ziddiyat) atamasi – badiiy asar mohiyatida yotgan qarama-qarshilik, personajlarning o'zaro to'qnashishi, ixtilofi. Konflikt epik asarlarga nisbatan qo'llanadi, detektiv romanlarda esa u kolliziya, kechinma, fikr oqimi tarzida namoyon bo'ladi. Konfliktning 3 xil ko'rinishi mavjud: asar qahramonlarining bir-birlari bilan to'qnashuvi, kurashi; shart-sharoit, muhit bilan to'qnashuv; badiiy qahramonning o'z-o'zi bilan ichki kurashi. Mojaro har qanday hikoyada hal qiluvchi keskinlikni ta'minlaydi va bu holat hikoyada voqealar rivojini oldinga siljitish uchun ishlatiladi. Bu ko'pincha personajlarning qadriyatlarini va zaif tomonlarini ta'kidlab, hikoyada chuqurroq ma'noni ochish uchun xizmat qiladi. Badiiy asarda ziddiyat tashqi yoki ichki bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, ijtimoiy konflikt ham mavjud. Bunda asar qahramonlari jamiyatdagi qoidalar, an'analar va normativlar bilan to'qnash kelishadi. Ularning ijtimoiy mavqe, oilaviy munosabatlar yoki do'stlik kabi masalalarda yuzaga keladigan nizolar asarda muhim o'rin tutadi. Tashqi ziddiyat syujetdagi voqealar orqali ifodalansa, ichki ziddiyat qahramonning nutqidan, monolgidan ko'rinadi. Garchi ziddiyatsiz asar mavjud bo'lsa-da, aksariyat badiiy asarlar muvaffaqiyat qozonish uchun ziddiyatni talab qiladi. Hikoyada ziddiyat nima? Hikoyada ziddiyat-bu qahramonning maqsadga intilishiga qarshi qarama-qarshi kuchlarning to'qnashuvi. Maqsadga erishish uchun xarakter bu qarama-qarshi kuchlarni yengib o'tishi kerak. Ushbu qarama-qarshi kuchlar ko'plab shakllarga ega bo'lishi mumkin va hatto faqat xarakterning o'z ruhiyatida mavjud bo'lishi mumkin. Hikoyadagi ziddiyat nima: qahramonning maqsadga intilishiga qarshi qarama-qarshi kuchlarning

to'qnashuvi. Ko'pgina hikoyalar asosiy shart bilan boshlanadi: belgi nimanidir xohlaydi yoki kerak. Bular hikoyadagi ziddiyat elementlari, chunki bu belgi o'z maqsadlariga erishishga harakat qilganda bir necha bor turli to'siqlarga duch keladi. Hikoyadagi ziddiyat nima? Hikoyadagi tashqi ziddiyat: qahramonning boshqa odam, joy yoki narsa bilan bo'lgan har qanday to'qnashuvi. Bu faol qarama-qarshi kuchdir. Hikoyadagi ichki ziddiyat nima?

Ichki ziddiyat xarakterning o'ziga xos muammolarini anglatadi. Ularning shaxsiyati bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, egotizm yoki narsizm. Shuningdek, ular o'z fikrlaridagi nafrat, ishonchsizlik yoki boshqalardan qo'rqish kabi ba'zi kamchiliklarni bartaraf etishlari kerak bo'lishi mumkin. Qahramonlar orasidagi konfliktni ekspozitsiya va personajlar nutqidan bilish mumkin. Ekspozitsiya – badiiy asar syujetining tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, voqealar ro'y beradigan zamon va makon, personajlar to'g'risidagi muallif ma'lumotlari hisoblanadi. Bunday ma'lumotlar, odatda, badiiy asar syujetining kirish qismida voqelik tuguni, rivoji, asosiy to'qnashuvlar hamda kulminatsion nuqtadan avval beriladi.

Hikoyalardagi tashqi ziddiyat tushunchasini yanada aniq izohlash maqsadida Isajon Sultonning "Qismat" hikoyasi qahramonlarini keltirsak bo'ladi. Muallif "Qismat" hikoyasida otaning xarakteri, o'z otasiga qilgan zulmi uchun taqdiriga yozilgan qismati, ichki milliylik tuyg'usi va voqealar tizimi haqida atroflicha fikr yuritilgan. Sirtidan qaraganda, hikoya qahramonlari sokin, psixozga berilmaganga o'xshaydi; lekin, monologlar orqali ziddiyat asta-sekinlik bilan ochib beriladi. Hikoya boshlanishidagi joy tasviri ham ziddiyat asosiga qurilgan. Keyin qahramonlar orasida tiriklik va o'lim haqidagi fikrlar bayon qilingan. Bular tabiat va makon-zamon masalalaridagi ziddiyat bo'lsa, asardagi qahramonlar o'rtasidagi konflikt esa farzand otasi bilan kelisha olmaganidir. Chunki o'sha davrda diniy amallarni bajarishga cheklovlar qo'yilgan. Ota xufiyona masjidlariga borgan. Bu esa ota va bolaning kelishmovchiliklariga sabab bo'lgan. Ikki qahramonning fikrlash tarzi mos kelmagan. Buni syujetdagi bir voqea aks ettiradi: o'g'il otasini yiqitib yuborganda, otaning ko'ziga qamish kirib ketadi, achichig'langan ota o'g'lini qarg'agan: "Qamishday qurigin". Bu qarg'ish qahramonning hayotiy ishlariga ta'sir qilishi bilan bir qatorda farzandlari bilan norozilik vaziyatlarini ham keltirib chiqargan. Ota va o'g'il munosabatlaridagi ziddiyat: katta o'g'ilning "Enamni urganlaringda qo'lingga yopishganlarim esingdami? Mana senga! Jizilla, jizillayver!" kabi nafratomuz so'zlari orqali tasvirlangan. Tahlil: Bu to'qnashuvlar voqeani oldinga siljitadi: qahramonlar taqdirini keskinlashtiradi. Hikoyaning oxirida ziddiyat sababchisi deb hisoblangan ota vafot etadi, majoziy ma'noda esa

baliqni qovurishadi. Shu bilan qaysidir ma'noda ziddiyat o'z nihoyasiga yetadi, ammo irsiyat orqali o'zaro nafrat avloddan avlodga o'tishni boshlaydi. Agar bu hodisa ro'y bermay, qahramon vafot etsa syujet to'laqonli shakllanmagan bo'lar edi. Tashqi ziddiyat ifodalangani tufayli bu hikoya mushohadaga chorlovchi xarakterga ega bo'lgan. Beixtiyor kitobxon mutolaa jarayonida bunday kelishmovchilik bo'lmasligi uchun nimalar qilish kerak degan savolni qo'yadi va javob izlay boshlaydi.

"Muallifning qahramon ichki psixologiyasining tabiat bilan konfliktini yaratish oldidan uni o'z-o'ziga qarshilantirib qo'yadi. Ichki taftish - bu asarlarda ko'p qo'llanuvchi sujet bo'lib, bunda ijodkor hayotiy reallikdan badiiy reallikka o'quvchini olib kirishda bir qancha qulayliklarga ega bo'ladi. Chunki tafakkur cheklanmagan va xayolning har qanday fantaziyasi hayotiy fabulaga mos kelish-kelmasligidan qat'iy nazar uni boricha qabul qilish mumkin. "Tosh" hikoyasi qahramonning xuddi shunday holda rivojlanib borayotgan tipik portreti - umumlashmalikdan o'sib chiqqanligini ko'rish mumkin. Ya'ni u butun insoniyatni, odamiyatni o'zida tasvirlash yukuni qabul qilgan.⁴⁰

Voqealarning rivojlanishida obrazlilik, tasviriylik va emotsionallik sodda metaforalarga ko'chadi. Qahramon fitratida bo'linish mavjudligini ko'rsatib beradi. Asar boshidan beri o'z-o'zini ikki tarafga bo'layotgan, yovuzlik va ezgulik orasida sarson inson obrazi keltirilgan. Nega bunday yonma-yon tasvir? Inson hayoti davomida ikki chiziqdan birini tanlaydi. Biri to'g'ri, ikkinchisi esa xato.

Ulug'bek Hamdamning "Tosh" hikoyasi bosh qahramoni ichki ziddiyatni to'liq o'zida mujassam qilgan. Ichki konflikt ifodasini bosh qahramonning quyidagi nutqidan anglash mumkin: "Nega tushkun kayfiyat mening bag'rimga tanda qo'ydi? Nega u ketmaydi, meni tinch qo'ymaydi?.. Bilmayman. Aksincha: vaqt o'tgan sari tushkunlik yuragimning tub-tubiga inib, mustahkamlanib, allaqanday jinsga, masalan, toshga aylanib borayotgandek. Tabiiyki, men ham boshqalar singari ba'zan u yoki bu bahona sabab yuzaroqdagi bir damlik quvonchlarga chalg'iyman, biroq keyin baribir, qa'rd a yotgan o'sha toshga - o'sha kayfiyatga qoqilib tushaveraman, tushaveraman...".⁴¹ Ushbu ichki ziddiyatni o'rganish qahramonlarga badiiy chuqurlik va murakkablik qo'shgan. Bosh qahramonning ichki kurashlari hikoyaning hissiy o'zagini tashkil qiladi va asarda qahramon bu to'qnashuvlar bilan kurashar ekan, yechim izlaydi. Shaxsiy o'sishga harakat qiladi. Hikoyada tashqi ziddiyat ham mavjud o'rinlarni keltirib o'tsak, bosh qahramon

⁴⁰ <https://bestpublication.org/index.php/sit/article/download/1083>.

⁴¹ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/ulug-bek-hamdami-1968/ulug-bek-hamdami-tosh-hikoya>.

o'zini behuzur his qilganida yon-atrofdagi odamlar uni tushunmaydi, undan jirkanadi. Bu holatdan esa bosh qahramon nafratlanadi. Sababi, insonlar nega meni har qanday holatimda qabul qilmaydi deb ranjiydi. Odamlar esa uning holatini qabul qilmaydi.(Qahramon qusgan bo'ladi). Konfliktni yuzaga keltirgan voqeani quyidagi jumlar orqali aniq anglash mumkin: Kimdir "Nima bo'ldi sizga?" deya menga hamdardlik bildirdi, ko'pchilik esa urishdi. Sotuvchi bo'lsa haydashga urindi: "Boring, keting bu yerdan, savdoniyam o'ldirdingiz!.. - Keyin sansiradi: - Obket anavi mag'zavangni!.. Boshqa hech nimani eslay olmayman: u yerda yana qancha muddat qoldim, ayol qayoqqa ketdi, qanday ketdi - bilmayman. Chunki men bag'rimning tub-tubida cho'kib yotgan o'sha azim Toshga yana boshim bilan urilgandim: dunyo unga, ya'ni boshimga qo'shilib aylanardi. Endi borlig'imda chalinayotgan kuy-qo'shiq g'oyib bo'lgandi, uning o'rnida yana avvalgi badbin kayfiyat hukmron edi va men uning mustahkam to'rlari changalida o'zimni benihoya nochor va g'arib sezardim..." Eng yomon vaziyat esa o'zi biroz oldin hurmat qilgan ayol ham undan yuz o'giradi. Odamlarning uni tushunmasligidan, o'zgaruvchanligidan, hamdard bo'la olmasligidan bosh qahramonning qalbida tug'yon boshlanadi. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Ulug'bek Hamdamning ushbu "Tosh yoki Yovuzlikning tug'ilishi" hikoyasida yakka shaxs obrazining umumlashma darajasigacha o'sib chiqishida ichki konfliktning, psixologik va tasviriy metodlarning qo'llanilishi ko'p qirralik yechimlar va xulosalarning kelib chiqishiga ijobiy ta'sir o'tkazgan. Isajon Sultonning "Qismat" hikoyasi qahramonlari bilan yuzaga kelgan ziddiyat ham asarning azaliy muammolarga bo'lgan munosabatimizni ochiqdagan, yechimlar haqida o'ylashga undagan. O'ylaymizki, kelajakda bu hikoya tatbiqida tanqidiy-falsafiy talqinga ega maqolalar, tasavvufiy tahlillar, yanada kengroq ma'no qatlamlarni namoyon qiluvchi ilmiy-badiiy topilmalarni kashf etamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Дилмурод Куронов Адабиётшунослик лугати [Book]. - Тошкент : Akademnashr, 2013.
2. D.Quronov "Adabiyotshunoslikka kirish" Toshkent: 2004-yil
3. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/isajon-sultonov-1967/isajon-sulton-qismat-hikoya>
4. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/ulug-bek-hamd-1968/ulug-bek-hamd-tosh-hikoya>

5. Bobur Nusratov Bahodir o'g'li, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat ona tili va adabiyot universiteti bitiruvchisi "ULUG'BEK HAMDAMNING –TOSH YOKI YOVUZLIKNING TUG'ILISHI HIKOYASIDA QAHRAMON ICHKI KONFLIKTI VA SHAXS PSIXOLOGIYASI TASVIRI" maqolasi.